

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TABIIY GEOGRAFIYA BOSHLANG‘ICH KURSINING TUTGAN O‘RNI VA ISTIQBOLLARI

**Oybek Olimov Baxromjon o‘g‘li,
Durdona Kamolova Shamsiddin qizi,
ADPI, Tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari ta’lim
yo‘nalishi 2- bosqich talabalari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab tizimida tabiiy geografiya boshlang‘ich kursining o‘qitilishi va o‘quvchilarda ushbu fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish chora tadbirlari yoritib berilgan. Bundan tashqari tabiiy geografiya boshlang‘ich kursining o‘qitish istiqbollari ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitish istiqbollari, chora-tadbir, tizim,

Har bir fanni rivojlantirish va uning ko‘lamini kengaytirish, ushbu fanni ko‘p jihatdan o‘qitilishiga bog‘liq. Shu ma’noda tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida ham yangicha usullaridan foydalanish ta’lim sohasidagi va bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri ekanligini hisobga olsak, bu kabi jihatlarga oddiy hol sifatida qarashning o‘zi kifoya. Bu o‘rinda tabiiy geografiya boshlang‘ich kurslarida badiiy usuldan foydalanish orqali mavzularni har tomonlama o‘quvchilarga oson, sodda va tushunarli tarzda yetkazish mumkin.

Avvalambor, badiiy ijod deganda, tabiiy geografiya boshlang‘ich kurslariga tegishli bo‘lgan asardan parcha, hikoya yoki sherni tushunish mumkin. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursida badiiy ijoddan foydalangan holda dars o‘tishning bir qator o‘ziga hos jihatlari va hususiyatlari mavjud va bular:

1. O‘quvchilarda tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi darsliklaridagi mavzularni, geografik tushunchalarni sodda, ravon va tushunarli holatda yetkazishni ta’minlash;
2. O‘quvchilarning nutq ravonligini oshirish, yodda saqlab qolish qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qilish;
3. Dars mashg‘ulotlari jarayonida mavzular bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida o‘ziga xos raqobatni vujudga keltirish, shu orqali ularni mavzularga oid tushunchalarni mustahkamlash;
4. Mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishlariga yordam berish.

Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi darslarida badiiy ijod namunalardan foydalanish, zamon ta’labidan kelib chiqqan holda, dars o‘tish jarayoniga yangicha yondashish kerakligini yana bir bor isbotlaydi. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi darsliklarida keltirilgan badiiy ijod namunalari va u orqali berilgan ma’lumotlar hayotiyli bilan birga, o‘quvchilarga go‘yoki voqea va hodisalarning aynang o‘zini ko‘z oldida gavdalanitirib beradi. Bu bilan har bir o‘quvchi ozi ushbu voqea va hodisalarni chuqur anglab, geografik mavzularni tushunib olishlari oson bo‘ladi. Hayotga boglab o‘tilgan xar qanday mavzu o‘quvchilar ongida muhrlanib qoladi va uni yodlab olishlari xam juda tez kechadi. Shu bilan tabiiy geografiya boshlang‘ich kurslariga badiiylikni bog‘lab dars jarayonlarini olib borish o‘quvchilar ongiga har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sobirxonov A.T. Tabiiy geografiya kursida mavzularni yoritishda badiiy metoddan foydalanish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) – T.:”Turon zamin ziyo” 2015. 32-33 b.
2. Nabixonov M. Tabiiy geografiya darslarida qo‘shimcha badiiy adabiyotlardan foydalanish ahamiyati. 1968. 17 b.